

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

LINGVOMADANIYATSHUNOSLIK VA UNING METODLARI

*Bardiyeva Gulasal Umidbek qizi*

*Urganch davlat universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Maqolada tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlaridan hisoblangan lingvomadaniyatshunoslik hamda uning o'rganilish metodlari, til va madaniyat sohaning o'rganilish asosi ekanligi hamda olimlarning lingvokulturologiya metodologiyasi haqidagi qarashlari tahlilga tortilgan.

**Kalit so'zlar:** lingvomadaniyatshunoslik, til, madaniyat, metodologiya, lingvokulturologiya metodlari.

**Аннотация:** В статье анализируются языкознание и методы его изучения, язык и культура являются основой изучения данной области, а также взгляды ученых на методологию языкознания.

**Ключевые слова:** лингвокультурология, язык, культура, методология, лингвокультурологические методы.

**Annotation:** The article analyzes linguistics and its study methods, language and culture are the basis of study of the field and the views of scientists about the methodology of linguistics.

**Key words:** linguistic and cultural studies, language, culture, methodology, linguocultural methods.

Globallashuv hamda madaniyatlarning aralashuvi yuz berayotgan hozirgi kunda til va madaniyatning o'zaro aloqasi, ya'ni lingvokulturologiya sohasi keng o'rganilmoqda va tahlil qilinmoqda. Ma'lumki, til – madaniyatning ko'zgusi hisoblanadi, chunki unda butun bir millatning dunyoqarashi, fikrashi, urf-odatlari hamda milliy xarakteri aks etadi. Shuning uchun ham tilni tilshunos olimlar "madaniyat ko'zgusi", "madaniyat xazinasi", "madaniyat tashuvchisi", "madaniyat quroli deb ta'riflashadi. Tilshunoslikda esa til va madaniyat mushtarakligini o'rganuvchi soha sifatida lingvokulturologiya fani shakllangan.

Til, madaniyat, etnosning o'zaro munosabati va aloqasi masalasini o'rganish fanlararo muammo hisoblanadi. Mazkur muammoning yechimini falsafa va satsialogiyadan tortib, etnolingvistika va lingvomadaniyatshunoslikgacha bo'lgan bir necha fanlarning birgalikdagi sa'y- harakatlari bilangina hal qilish mumkin. Masalan, lisoniy tafakkurning etnik masalalari bilan lingvistik falsafa, etnik, ijtimoiy yoki guruqlar muloqotining o'ziga xos lisoniy jihatlari bilan psixalingvistika va h.k. shug'ullanadi. Lingvomadaniyatshunoslik tilshunoslikning mustaqil yo'nalishi sifatida 20-asrning 90-yillarida vujudga keldi1.

1 Телия В. Н. Русская фразеология семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. –М: Школа "Языки русской культуры", 1996. –С. 286.

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

Lingvomadaniyatshunoslik madaniyatda ramziy, obrazli, metaforik ma’no kasb etgan va natijalari inson ongida umumlashtiriladigan, ko’rayotgan vitual olami orqali tasavvur qilinadigan miflar, afsona, xalq og’zaki ijodining boshqa namunalari yoki xalq tilidan yozib olingan oddiy dialog matnlarda yoxud tilning frazeologik qatlamida ham namoyon bo’ladigan til birliklari sanaladi. Shundan ham ma’lumki, biror lingvokulturologik birlikning paydo bo’lishi xohlagan bir xalq urf-odatlari frazeologizmlar, maqollar yoki matallarga aylanib ketishi natijasida bo’lishi mumkin.

Lingvomadaniyatshunoslik insoniy, aniqrog’I, insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandir. Bu esa shuni bildiradiki, lingvomadaniyatshunoslik markazi madaniyat fenomeni bo’lgan inson to’g’risidagi antropologik paradigmaga xos bo’lgan yutuqlar majmuasidir<sup>2</sup>.

Lingvomadaniyatshunoslik inson omiliga, aniqrog’I, insondagi madaniyat omiliga yo’naltirilgan. Lingvomadaniyatshunoslik markazi madaniyat fenomenidan iborat bo’lishi inson haqidagi antropologik paradigmaga tegishli hodisa ekanligidan dalolat beradi<sup>3</sup>.

Xullas, lingvomadaniyatshunoslik jonli kommunikativ jarayonlarni – xalqning madaniyati va mentaliteti, ya’ni uning ongi, ommaviy an’analari, urf-odatlari bilan bog’liq til ifodalarining qo’llanilishini tadqiq etadi. Demak, lingvokulturologiya til va madaniyatning o’zaro munosabatini o’rganuvchi tilshunoslikning yangi yo’nalishlaridan bo’lib, hamma bo’limlar kabi o’zining metodlari orqali asarlar tilini tahlil qilish bilan shug’ullanadi.

Metodologiya bilish jarayoniga dunyoqarash tamoyillarini qo’llashdir. Metodologiya metodlarning umumiyy nazariyasi sifatida insonning bilish faoliyatida qo’llanilgan metodlarni umulashtirish zarurati bilan dunyoga keldi. Dialektik metod maxsus ilmiy metodlarga, ya’ni turli fanlarga oid metodlarga ta’sir qiluvchi ta’limot bo’lgani uchun uni metodologiya, ya’ni ilmiy tadqiqot usuli bo’lgan metodlar haqidagi ta’limot deb yuritdilar. Dastlab metodologiya muammolari falsafa doirasida ko’rila boshlandi<sup>4</sup>.

Zamonaviy lingvokulturologiya yo’nalishida hali to’liq metodologiya shakllanmagan bo’lib, olimlar uning metodologiyasini tilshunoslik metodologiyasi bilan bog’lashadi. Lingvokulturologiya metodlarining asosiy vazifasi til va madaniyatning o’zaro aloqasini tahlillar va misollar orqali yanada to’liroq, tushunarliroq o’rganadi. Lingvokulturologiya fanining metodlari sifatida unga yondosh bo’lgan kulturologiya, tilshunoslik, etnolingvistika, antrapologiya kabi sohalarning til va madaniyatga aloqador bo’lgan metodlari va yo’nalishlaridan foydalilaniladi. Chunki lingvomadaniyatshunoslik ularning tadqiqotlarini o’zida mujassamlashtiradigan soha hisoblanadi. Shuning uchun ham lingvomadaniy tahlil jarayonida madaniyatshunoslik hamda tilshunoslikning bir necha metodlaridan tanlab foydalilaniladi.

Har qanday ilmiy tadqiqotning aniq metodi o’zining qo’llanish chegarasiga ega. Biroq o’zaro aloqada bo’lgan til va madaniyat shuchalik ko’p qirraliki, ularning tabiatini, funksiyalari va

<sup>2</sup> Телия В. Н. Русская фразеология семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. –М: Школа “Языки русской культуры”, 1996. –С. 222.

<sup>3</sup> Слишкин Г. Г. От текста к символу. Лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании дискурса. –М: Academia, 2000.- 128 с.

<sup>4</sup> Usmonova S. Lingvomadaniyatshunoslik. –T.: Bookmany print, 2022. –B. 40.

# ILM FAN XABARNOMASI

## Ilmiy elektron jurnali

genezisini bir metod vositasida bilish mumkin emas. Shuning uchun ham bu sohada bir-birini to'ldiruvchi qator metodlarning qo'llanilishi g'oyat tabiiyidir<sup>5</sup>.

Lingvokulturologiyaning metodlari qatorida lingvistik, kulturologik, sotsiologik, etnografik kabi metodlarni keltirish mumkin. Bu metodlar madaniy tahlil jarayonida bir-birini to'ldirib turadi va lingvomadaniyatshunoslikda murakkab aloqada bo'lувчи til va madaniyat munosabatlarini tadqiq etish usullarini ko'paytirib, osonlashtirishga xizmat qiladi. Bu sohaning metodlarga ajralishi borasida ko'plab olimlarning fikrlari mavjud. Jumladan, tilshunos Lakoff til va madaniyatning o'zaro munosabatini o'rganish uchun metaforalarni tahlil qilish usulini taklif qiladi.

Yana bir mashhur tilshunos olim Teliya esa lingvokulturologiyaning qulay metodi sifatida makrokomponent usulidan foydalanish fikrini ilgari suradi. Bunda madaniy tahlil bosqichma - bosqich amalga oshiriladi. Ayrim oimlar lingvokulturologiyaning metodlari borasida matnlar orqali til va madaniyat aloqadorligini tadqiq qilish usulini ham taklif qiladilar.

Zamonaviy lingvomadaniyatshunoslik metodologik jihatdan uchta asosga tayanadi: 1) V.fon Gumbolt va A. A.Potebnya ta'limotiga; 2) olamlarning ko'pligi gipotezasiga; 3) lisoniy nisbiylik gipotezasiga. Ko'proq jiddiy metodologik asos sifatida til va madaniyatning o'zaro aloqasi masalasini ko'targan V.fon Gumbolt va A. A.Potebnyaning ta'limotiga suyaniladi. Biroq mazkur ta'limot bugungi globallashuv, integratsiyalashuv jarayonida eskirgan, jonli hayotdan uzilgan sanaladi. Shuning uchun zamonaviy lingvomadaniyatshunoslikning asosiy vazifasi tilshunoslikning yo'nalishi doirasidan chiqish, til va madaniyatning jonli jarayonlarini tasvirlash va eng muhim til va madaniyatning rivojlanishini ilmiy bashoratlashdan iborat<sup>6</sup>.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, lingvomadaniyatshunoslikning asosiy vazifasi til va madaniyatning o'zaro munosabatini qulay va tushunarli usullar orqali tahlil qilish hamda uni tilshunoslikdan alohida katta soha ekanligini namoyon qilishdan iborat bo'lib, bu esa uning metodlari orqali madaniyatimizning tilimizga qorishib ketgan qirralarini aniqlash orqali amalga oshiriladi va rivojlantiriladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Телия В. Н. Русская фразеология семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. –М: Школа “Язик русской культуры”, 1996.
2. Слишкин Г. Г. От текста к символу. Лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании дискурса. –М: Academia, 2000.- 128 с.
3. Usmonova S. Lingvomadaniyatshunoslik. –T.: Bookmany print, 2022. –B. 40.
4. Маслова В. А. Лингвокультурология. Учеб. Пособие для студ. Въестю учеб, заведеный. –М. Издательский уентр “Академия” ,2001. –C.35.

<sup>5</sup>Маслова В. А. Лингвокультурология. Учеб. Пособие для студ. Въестю учеб, заведеный. –М. Издательский уентр “Академия” ,2001. –C.35.

6 Usmonova S. Lingvomadaniyatshunoslik. –T.: Bookmany print, 2022. –B. 43.